
Vol. 2, No. 1 (2026)
ISSN-L: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN
ILMIY JURNAL



FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



Vol. 2, No. 1 (2026)

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Ye.E. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva B.S. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova G.N. – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova O.G. – pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Umarova N.Sh. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova N.Z. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdullayeva D.U. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov X.X. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov M.R. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva S.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva M.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev A.N. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva G. M. – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova S.T. – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova M. B. – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Maxmudova D.A. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldashev S.R. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova D.B. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Ye.G. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Джексембаева Г.С. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Jalilov N.A.– pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vahobov A.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalilova R.R. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Sh.U. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Sh.F. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev J.Sh. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova F. X. – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

PSIXOLOGIK BARQARORLIK VA MOLIYAVIY STRESS MUAMMOSINING ILMIY TADQIQ ETILGANLIK DARAJASI

Sotvoldiyeva Nargiza Abdukarimjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti Psixologiya kafedrasi
2-kurs magistranti
nargizasotvoldiyeva01@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada psixologik barqarorlik va moliyaviy stressning iqtisodiy qarorlarga ta’siri iqtisodiy psixologiya hamda xulq-atvor iqtisodiyoti nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Tadqiqotda shaxsning psixologik holati, xususan, stressga chidamlilik darajasi va moliyaviy bosim ostida qaror qabul qilish xususiyatlari o‘rganilgan. Shuningdek, iqtisodiyot va psixologiya yo‘nalishi talabalarining moliyaviy holatni baholashdagi farqlari hamda riskka moyillik darajalari empirik jihatdan tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: psixologik barqarorlik, moliyaviy stress, iqtisodiy qarorlar, iqtisodiy psixologiya, xulq-atvor iqtisodiyoti, tavakkalchilik, riskka moyillik, stressga chidamlilik, moliyaviy savodxonlik, iqtisodiy xulq-atvor, coping strategiyalar, psixoedukatsiya.

Аннотация. В данной статье анализируется влияние психологической устойчивости и финансового стресса на экономические решения с точки зрения экономической психологии и поведенческой экономики. В исследовании изучены психологическое состояние личности, в частности уровень стрессоустойчивости и особенности принятия решений в условиях финансового давления. Также эмпирически проанализированы различия в оценке финансового положения и уровня склонности к риску у студентов направлений экономики и психологии.

Ключевые слова: психологическая устойчивость, финансовый стресс, экономические решения, экономическая психология, поведенческая экономика, риск, склонность к риску, стрессоустойчивость, финансовая грамотность, экономическое поведение, coping-стратегии, психообразование.

Abstract. This article analyzes the impact of psychological resilience and financial stress on economic decision-making from the perspectives of economic psychology and behavioral economics. The study examines the psychological state of individuals, particularly the level of stress tolerance and the characteristics of

decision-making under financial pressure. In addition, differences in the assessment of financial conditions and levels of risk propensity among economics and psychology students were empirically analyzed.

Keywords: psychological resilience, financial stress, economic decisions, economic psychology, behavioral economics, risk-taking, risk propensity, stress tolerance, financial literacy, economic behavior, coping strategies, psychoeducation.

KIRISH

Jahonda iqtisodiy munosabatlarning globallashuvi, mehnat bozoridagi beqarorlik, moliyaviy xavflarning ortib borishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy noaniqlik sharoitida insonning iqtisodiy qaror qabul qilish jarayonini o‘rganish dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa, shaxsning psixologik holati, xususan, psixologik barqarorligi va moliyaviy stress darajasi uning iqtisodiy xulq-atvori hamda qarorlarining samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Shu sababli iqtisodiy qarorlarni faqat ratsional tanlov modeli asosida izohlash yetarli bo‘lmay, ularni psixologik yondashuvlar bilan integratsiyalashgan holda tadqiq etish zarurati yuzaga kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, psixologik barqarorlik va moliyaviy stressning iqtisodiy qarorlarga ta’sirini kompleks o‘rganish iqtisodiy psixologiya hamda xulq-atvor iqtisodiyoti fanlari doirasida muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘zining nutqlari va strategik dasturlarida har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor, psixologik barqaror yosh avlodni tarbiyalash muhimligini ko‘p bor ta’kidlagan.

Jumladan, Yangi O‘zbekiston - taraqqiyot va ma’rifat yo‘lida asarida shunday deydi: “Yoshlarimiz zamon ruhini chuqur his etadigan, yangilikka intiladigan, mustaqil fikrlaydigan, o‘z hayoti uchun mas’uliyatni zimmasiga ola biladigan shaxslar bo‘lib voyaga yetishi kerak”. Bu fikrlar shuni ko‘rsatadiki, shaxsning psixologik barqarorligi, uning o‘z ustida ishlashi, ichki resurslarini safarbar etib, muammolarni hal qilish qobiliyati bugungi zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli yashashning asosi hisoblanadi.

Psixologiya fani va amaliyotida barqarorlik muammosini o‘rganish zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, ijtimoiy-iqtisodiy keskinlikning ortishi hamda insonning qaror qabul qilish samaradorligiga bo‘lgan talabchanlikning kuchayishi sababli dolzarblik kasb etib kelmoqda.

Ilmiy adabiyotlarni o‘rganish shuni ko‘rsatmoqdaki, psixologik barqarorlik muammosi, ayniqsa, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida, jamiyatimizda sodir bo‘layotgan jarayonlarga nisbatan yetarli darajada o‘rganilmaganligi sababli shaxsning psixologik barqarorligi muammosini ilmiy fenomen sifatida nazariy jihatdan tushunishga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

Tarixan psixologik barqarorlik muammosi 1966-yilda L.I. Bojovich tomonidan XVIII Psixologik kongressdagi ma’ruzada ko‘tarilgan. Keyinchalik psixologik barqarorlik shaxs barqarorligi muammosining turli jihatlarini ko‘rib chiquvchi tadqiqotlarda rivojlantirildi [2; 123].

Psixologik barqarorlik va moliyaviy stressning iqtisodiy qarorlarga ta’siri so‘nggi o‘n yilliklarda psixologiya va xulq-atvor iqtisodiyoti fanlari chorrahasida shakllangan eng dolzarb yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Zamonaviy iqtisodiy muhitda shaxslar doimiy ravishda noaniqlik, kredit yuklamasi, daromadlarning tebranishi, iste’mol bozori narxlarining o‘zgarishi va ijtimoiy-ma’naviy bosimlar ta’sirida qaror qabul qiladi.

Bunday sharoitlarda psixologik barqarorlik iqtisodiy tanlovlarning sifati va izchilligini belgilovchi omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur mavzuning ilmiy tadqiq etilganlik darajasi, avvalo, ikki katta ilmiy an’ana, ya’ni stress psixologiyasi va iqtisodiy qarorlar psixologiyasi doirasida to‘plangan empirik dalillar hamda nazariy modellarning qanday integratsiyalashganini tahlil qilish orqali ochiladi.

Xususan, moliyaviy stressning manbalari va oqibatlari, jumladan, qarzdorlik, jamg‘arma yetishmasligi, moliyaviy xavfsizlikning pasayishi psixik salomatlik indikatorlari bilan bog‘liqligi, shuningdek, ushbu holat qaror qabul qilish mexanizmlarini qanday yo‘naltirishi to‘g‘risida xalqaro adabiyotda sezilarli hajmda izlanishlar mavjud. Shu bilan birga, psixologik barqarorlikning moliyaviy stress sharoitida “himoya omili” sifatidagi roli, ya’ni bunda stressning iqtisodiy xulqqa salbiy ta’sirini yumshatish yoki modulyatsiya qilish mexanizmlari ham tobora ko‘proq e’tibor markaziga chiqmoqda [4; 18].

Ilmiy adabiyotlarda barqarorlik konsepsiyasini tushunishga ko‘plab yondashuvlar mavjudligi qayd etilgan bo‘lib, ularning shakllanishiga ijtimoiy-madaniy va tarixiy shart-sharoitlar sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Ushbu hodisani psixologiyaning turli sohalari doirasida faol o‘rganish 1950-1980-yillarda


boshlangan, biroq ushbu fenomenologik hodisaning umumiy qabul qilingan yagona ta’rifi hanuzgacha shakllanmagan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rus tilidagi ilmiy an’anaga ko‘ra, psixologik barqarorlik turlicha talqin qilinadi: uni ham iqtisodiy va ekstremal vaziyatlarda psixikaning barqarorligini saqlashga imkon beradigan shaxs xususiyati sifatida, ham insonning shaxsiy pozitsiyalariga (ustanovkalar, qarashlar, e’tiqodlar) rioya qilish qobiliyati sifatida tushuniladi.

Bu pozitsiyalar vaziyat va xulq-atvor o‘rtasida vositachi bo‘g‘in vazifasini bajaradi. Shunday qilib, psixologik barqarorlik ko‘pincha shaxsning ajralmas xususiyati sifatida qaraladi. Psixologik barqarorlikni shaxs xususiyati sifatida o‘rganishga L.I. Bojovich, K.K. Platonov va V.E. Chudnovskiylarning ishlari bag‘ishlangan. Masalan, L.I. Bojovich bolaning shaxsiy rivojlanishini o‘rganar ekan, shaxs o‘z qarashlari, munosabatlari, axloqiy yo‘l-yo‘riqlari va talablari mavjud bo‘lganda, shuningdek, hayotiy maqsadlarni aniq anglash orqali shakllanishini ta’kidlaydi.

Shu nuqtai nazardan, “Moliyaviy stress darajasini anqilash”ga qaratilgan mualliflik so‘rovnoma (Sh.Omonov, N.Sotvoldiyeva) shaxslarning moliyaviy bosim sharoitida qaror qabul qilish xususiyatlari, stressga chidamlilik darajasi hamda iqtisodiy xulq-atvoridagi o‘zgarishlarni aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi respondentlarda psixologik barqarorlik darajasining moliyaviy stress bilan o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish hamda bu omillarning iqtisodiy qarorlar samaradorligiga ta’sirini aniqlashdan iborat.



1-rasm. Siz hozirgi moliyaviy holatingizni qanday baholaysiz?

1-rasm natijasiga ko‘ra, respondentlarga “Siz hozirgi moliyaviy holatingizni qanday baholaysiz?” deb berilgan savolimizga ularning, ya’ni iqtisodiyot yo‘nalishi talabalarining 18%, psixologiya yo‘nalishi talabalarining 26% “yuqori” degan javobni berib o‘tishdi. Bunga sabab, ularning kasbiy ta’siri, xususan, iqtisodiyot yo‘nalishi talabalarining moliyaviy savodxonlik va iqtisodiy realliklardan ko‘proq xabardorligi, o‘z daromadlari va xarajatlarini yanada tanqidiy baholashiga olib kelishi mumkinligi, shuningdek, psixologik omillarning mavjudligi, ya’ni psixologiya yo‘nalishi talabalari o‘zlarini baholashda ko‘proq optimistik kayfiyat yoki subyektiv qanoat hissini ustun qo‘ygan bo‘lishlari ehtimoldan xoli emasligi tadqiqotimizda o‘z isbotini topdi.

Umuman olganda, har ikki yo‘nalishda ham moliyaviy holatga nisbatan ijobiy munosabatning yuqori ekanligi talabalarning o‘z resurslarini idrok etish va ulardan foydalanishdagi psixologik holatini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkich hisoblanadi.

Navbatdagi natijaga ko‘ra, respondentlarga “Siz hozirgi moliyaviy holatingizni qanday baholaysiz?” deb berilgan savolimizga ularning, ya’ni iqtisodiyot yo‘nalishi talabalarining 76%, psixologiya yo‘nalishi talabalarining 58% “o‘rta” degan javobni berib o‘tishdi. Bunga sabab, ularning kelajakka bo‘lgan ishonchi va pragmatizmi, xususan, iqtisodiyot yo‘nalishi talabalarining moliya, statistika va bozor qonuniyatlarini chuqurroq o‘rganganliklari sababli o‘z holatlarini obyektiv mezonlar asosida baholashga moyil bo‘lganliklari, shuningdek, o‘qish davomida bank, buxgalteriya yoki savdo sohalarida amaliyot o‘tab, qo‘shimcha daromad topish imkoniyatiga ega bo‘lganliklari ularga o‘zlarini moliyaviy jihatdan mustahkam o‘rtacha guruhga kiritishga asos bo‘ldi.

Ular uchun o‘rta holat - bu asosiy ehtiyojlarning qoplanishi va barqarorlikning mavjudligi bo‘lsa, psixologiya yo‘nalishi talabalari esa moliyaviy holatni ko‘proq emotsional va nisbiy nuqtayi nazardan baholaganliklari, professional daromadga chiqish muddati biroz uzoqroq bo‘lishi ularning o‘z holatlarini “o‘rta” deb baholash darajasiga ta’sir ko‘rsatgan. Umuman olganda, iqtisodchilarning o‘z holatini “o‘rta” deb belgilashi ularning realistik va tahliliy yondashuvidan dalolat bersa, psixologlarning ko‘rsatkichi bu guruhda moliyaviy holatga nisbatan subyektiv va o‘zgaruvchan munosabatning ustunligi bilan ahamiyatlidir.

Ushbu omillarni aniqlash maqsadida biz tadqiqotimizda mashhur Charles A. Holt va Susan K. Lauryning “Riskka moyillik” metodikasidan foydalandik. Ushbu metodikada insonning riskka (tavakkal) bo‘lgan moyilligini va psixologik barqarorligini aniqlash uchun mo‘ljallangan bo‘lib, biz bu metodika uchun

iqtisodiyot va psixologiya yo‘nalishining 4 kurs talabalarining 100 nafarini jalb qildik. Natijalar quyidagi jadvallarda aks ettirilgan.

1-jadval

“Riskka moyillikning” jinslar bo‘yicha natijalari

	jins	n	M	Std. Deviation	t	p
Risk	erkak	33	16,45	2,43	3,79***	0,0001
	ayol	67	14,51	2,41		

*p<0,05; **p<0,01; ***p<0,001

1-jadvalning natijalariga ko‘ra, “Riskka moyillik”ning jinslar bo‘yicha natijalari o‘rtacha arifmetik qiymatlari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi (t=3,79***; p<0,001). Bunga ko‘ra, ayollarga nisbatan erkaklarda riskka moyillik, ya’ni tavakkalchilikka moyillik yuqori ekanligi aniqlandi. Bunga sabab, erkaklarda bu ko‘rsatkichning yuqoriligini bir nechta fundamental psixologik va ijtimoiy-psixologik omillar bilan tushuntirish mumkin. Unga ko‘ra, evolyutsion-psixologik yondashuv nuqtayi nazaridan erkaklar tarixan ovchi va himoyachi rollarini bajarganlar.

Bu rollar doimiy ravishda noaniqlik va xavf-xatar bilan bog‘liq bo‘lganligi, resurslar uchun raqobatning mavjudligi esa erkaklarni ijtimoiy iyerarxiyada yuqori o‘rin egallash va resurslarni qo‘lga kiritish uchun ko‘proq tavakkal qilishga majbur qilganligi, naslni davom ettirish jarayonida biologik darajada muvaffaqiyatli tavakkalchilik erkakning kuchli va moslashuvchan ekanligidan dalolat beruvchi signal sifatida qaralganligi, ijtimoiy rollar va gender stereotiplari, ya’ni jamiyatdagi kutilmalar shaxs psixologiyasiga kuchli ta’sir o‘tkazishi tadqiqotimiz davomida o‘z isbotini topdi. Maskulinlik tushunchasi ko‘p madaniyatlarda, jumladan, Markaziy Osiyo mentalitetida ham erkak kishining dadil, qaror qabul qiluvchi va qiyinchiliklardan qo‘rqmaydigan shaxs sifatida tarbiyalanishi bilan izohlanadi.

XULOSA

Tavakkalchilik erkaklik sifatining bir qismi sifatida qabul qilinadi. Muvaffaqiyatga yo‘naltirilganlik nuqtayi nazaridan erkaklar ko‘pincha natijaga ko‘proq e’tibor qaratadi, ayollar esa xavfsizlik va barqarorlikni afzal ko‘radilar. Hissiy regulyatsiya va xavfni baholashga oid psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, jinslar xavfni turlicha idrok etadilar: ayollarda instinktiv ravishda

ehtiyotkorlik va ehtimoliy salbiy oqibatlarni oldindan ko‘rish hissi yuqoriroq rivojlangan.

Bu holat ularni xavfli qarorlardan tiyib turadi. Optimistik subyektivlik nuqtayi nazaridan erkaklar ko‘pincha tavakkalchilik vaziyatlarida o‘z nazorat darajalarini yuqori baholaydilar. Ya’ni, ular vaziyatni boshqara olishlariga bo‘lgan ichki ishonch tufayli riskka osonroq qadam qo‘yadilar. Kognitiv uslublarda esa impulsivlik erkaklarda qaror qabul qilish jarayonida kognitiv tezlik bilan birga kechishi mumkin.

Ayollar psixologiyasida yo‘qotishdan qochish motivatsiyasi yutish motivatsiyasidan kuchliroq bo‘ladi. Erkaklarda esa aksincha, ehtimoliy yutuq, ya’ni status, pul va g‘alaba yo‘qotish xavfini so‘ndirib yuboradi. Ijtimoiy-iqtisodiy mas’uliyat nuqtayi nazaridan erkak kishining oilada asosiy ta’minotchi sifatidagi roli uni yangi imkoniyatlarni qidirishga undaydi. Yangi imkoniyat esa har doim ma’lum darajadagi riskni talab qiladi.

Umuman olganda, psixologik barqarorlik va moliyaviy stressning iqtisodiy qarorlarga ta’siri ko‘p omilli, dinamik va madaniy kontekstga sezgir jarayon hisoblanadi. Tadqiqot natijalari psixologik barqarorlikni rivojlantirish, muammoli-markazli coping strategiyalarini shakllantirish hamda moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan psixoedukatsion dasturlarni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatdi.

Ayniqsa, O‘zbekiston sharoitida mazkur yo‘nalishda mahalliy mentalitet va ijtimoiy qadriyatlarni hisobga olgan holda psixometrik vositalar yaratish, reprezentativ empirik tadqiqotlarni kengaytirish va amaliy dasturlarni joriy etish iqtisodiy qarorlar sifatini oshirish, oilaviy farovonlikni mustahkamlash hamda jamiyatdagi stress yukini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev.Sh.M. “Yangi O‘zbekiston - taraqqiyot va ma’rifat yo‘lida” nutqlar va maqolalar to‘plami). - Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Abolin L.M. Emotsional barqarorlik va shaxs faoliyati muammolari (pedagogik faoliyat kontekstida). - Moskva, 1980-yillar ilmiy maqolalari // psixologik to‘plamlar.
3. Al-G‘azzoliy A.H.Ihyo ulum ad-din (tanlangan qismlar, tarjima). T.: Movarounnahr, 2004. 320 b.
4. American Psychological Association. APA Dictionary of Psychology. Washington, DC: APA, 2007-2015.

MUNDARIJA

UYUSHMAGAN YOSHLAR VA ULARNING MUAMMOLARI Atabayeva Nargis Batirovna	**4**
TURLI YOSH DAVRLARIDAGI SHAXSLARDA O‘ZINI O‘ZI FAOLLASHTIRISH VA EMOTSIONAL SOHA O‘RTASIDAGI ALOQADORLIKLAR Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o‘g‘li	**25**
O‘ZBEK VA QIRG‘IZ QIZLARINI ETNIK STEREOTIPLARI VA IJTIMOIY USTANOVKALARINI ILMIY TADQIQ ETISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI Djuxonova Noxida Xayotjonovna	**33**
ZAMONAVIY SHIFOKORLAR PROFESSIONAL KARERASIDA PSIXOLOGIK OMILLARNING TA’SIRI Arziqulov O‘tkirbek Maxammatovich	**43**
KIMYOVIY ADDIKTATSIYALARDA OILAVIY MUHITNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI Mirashirova Nargiza Anvarovna., Raxmatova Zulxumor Alimovna	**50**
TYUTORLARNING BOSHQARUV USLUBLARI VA ULARNING TA’LIM SAMARADORLIGIGA TA’SIRI Alijonov Nurbek Ulug‘bek o‘g‘li	**56**
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY TAFAKKUR RIVOJLANISHINING JINSIY XUSUSIYATLARI Rajabov Murodil Jumaboyevich., Yuldasheva Shoxista Tojialiyevna	**70**
TA’LIM MUHITIDA O‘QUVCHI SHAXSI XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK USULLARI Soliyev Farxodjon Sodiqovich., Akbarova Nigora Axmadjonovna	**78**

MUNDARIJA

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB O‘QUVCHILARIDA KASBIY O‘ZINI-O‘ZI BELGILASH: MOTIVATSION VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI Mo‘minov Davronjon Marifjon o‘g‘li	**92**
O‘ZBEK VA RUS QIZLARINI OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARINI AMALIY O‘RGANILISHI Usmonova Nargiza Raximjonovna	**102**
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ Мирзажонова Элеонора Топволдиевна	**110**
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RUHIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI Z.O.Abdullayeva	**117**
HARBIY FAOLIYATDA ZAMONAVIY STRESS OMILLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI Abdumalikova Iroda Abdulaziz qizi	**125**
PSIXOLOGIK BARQARORLIK VA MOLIYAVIY STRESS MUAMMOSINING ILMIY TADQIQ ETILGANLIK DARAJASI Sotvoldiyeva Nargiza Abdukarimjon qizi	**136**
КОРРЕЛЯЦИЯ ИНФОРМАЦИОННОГО И ТЕМПЕРАМЕНТНОГО КРИТЕРИЕВ ВЕРТНОСТЕЙ В СФЕРЕ КОГНИТИВНОЙ СОЦИОНИКИ Туллекова Карина Сергеевна	**143**
TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARNING SHAKLLANISH OMILLARI VA BARTARAF ETISH YO‘LLARI Mirzayeva Faroxat Odiljonovna	**157**

MUNDARIJA

MURAKKAB BICHIMDAGI USTKI KIYIMLARNI MODELLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI Sattorova Ra’no Abdunazar qizi., Sindarova Shoxista Maxammatovna	**166**
O‘ZBEKISTONDA BAG‘RIKENGLIK SIYOSATINI YURITISHDA ETNOTURIZMNING O‘RNI Shavkat Bobojonov	**173**
BUXORONING OILAVIY VA JAMOAVYI MAROSIMLARI (MAHALLIY ERONIYLAR MISOLIDA) Iroda Kalonova	**177**
ELLIPTIK GAPLARNING STILISTIK MAQOMI Rasulov Zubaydullo Izomovich	**183**
PRAGMATIC AND COGNITIVE ANALYSIS OF CONCEPT “PEACE” IN POLITICAL SPEECH Rakhmatova Mehriniso Musinovna., Rakhmonova Jasmina Anvarovna	**188**
TIL EVOLYUTSIYASIDA O‘ZGARUVCHANLIK VA TEJAMKORLIK PRINSIPLARI Qobilova Nargiza Sulaymonovna	**194**
ZAMONAVIY INTERNET-MULOQOTDA LINGVOMADANIY BIRLIKLAR FENOMENI Jalolova Nigina Zavqiddin qizi	**203**

Materiallar ko‘chirib bosilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.
Ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqiladi. Tahririyat a’zolarining jurnal ruknlariga mos kelmagan, ko‘rsatilgan talablarga mos bo‘lmagan maqolalarni nashr qilmaslik huquqi bor.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” jurnali 05.05.2026-yildan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy litsenziya asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan maqolalarning barchasi “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi.
Jurnalda nashr etilgan materiallar va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’ul.

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
Tahririyat manzili: Toshkent shahar Sergili tumani Yangi Bunyodobod MFY 8-uy
https://fanlararotadqiqotlar.uz/